

IMMUNITET NIMA VA U NIMA UCHUN KERAK?

Almamatov Jasur Mirza o`g`li – o`qituvchi
Bozorova Ruxshona Dilshod qizi – talaba

Immunitet so'zi lotincha immunitas so'zidan kelib chiqqan. Immunitet tananing turli kasalliklardan himoyalaniş xususiyatidir. U organizmni turli yot moddalardan himoya qiladi. Immun tizimi juda murakkab mexanizmga ega, uning vazifasi ichki organizmning muvozanatini saqlash va virus, bakteriya, zamburug' va boshqa zararli moddalardan himoya qilishdir. Immun tizimi tanani begona mikroorganizmlardan himoya qilish uchun o'zaro uzviy bog'langan hujayralar va organlarning murakkab majmuasidan iborat. Immun hujayralari butun vujud, asab, yurak, harakat va ovqat hazm qilish tizimlari bilan birgalikda butun organizmning uyg'un harakatini ta'minlaydi. Immun tizimining asosiy vazifasi – murakkab va dinamik aloqa tarmog'ini bog'lashdir. Immun hujayralari begona hujayralar bilan uchrashganda, ular turli kimyoviy moddalar ishlab chiqarishni boshlaydilar. Ushbu moddalar hujayralarga ularning o'sishini tartibga solish va boshqa hujayralarni tashishda yordam beradi, shu bilan ularni muammoli va zaif joylarga yo'naltiradi. Immunitet pasayganda yoki zaiflashganda, biz turli kasalliklarga ko'proq moyil bo'lamiz va shamollash, qayta infeksiya, shuningdek gripp, allergiya, artrit, ayrim hollarda esa saraton kasalligi chalinish kuzatiladi.

Immunitet 2 xil bo'ladi: tug'ma va orttirilgan bo'ladi. Chaqaloq tug'ilishigacha uning qonida ko'pchilik kasalliklarga qarshi tayyor antitelolar hosil bo'ladi. Bu xildagi immunitet ota onadan bolaga beriladigan tug'ma immunitet hisoblanadi. Tug'ilgan paytdan boshlab tanani tashqi tomondan zararli moddalardan va turli patologik jismlardan himoya qiladi. Tug'ma immunitet, shuningdek, bosqin joyida begona mikroorganizmlarga qarshi kurashadigan qon hujayralarini ham o'z ichiga oladi. Teri va shilliq qavat qo'shimcha muhim himoya to'siqlari hisoblanadi. Orttirilgan immunitet hayot davomida tug'ma immunitet bilan yo'q qilinmagan begona mikroorganizmlar (masalan, bakteriyalar) bilan aloqa qilish natijasida shakllanadi. Orttirilgan immunitetning ishlashini antitanalar deb ham ataladigan hujayralar va oqsillar kompleksi ta'minlaydi. Orttirilgan immunitet immun tizimi bilan antigen uchrashgandan bir muncha vaqt o'tgach shakllanadi. Aynan shuning uchun birinchi bosqich hujayralarning bo'linishi va farqlanishi va antitanalarning paydo bo'lishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Organizmni infeksiya agentlar va boshqa yot moddalardan himoya qilish omillari tabiati bo'yicha uchga bo'linadi:

1. Filogenetik I. — anatomik va fiziologik belgilar bilan ta'minlanib, nasldan naslga o'tadigan nomaxsus himoya omillari. Bu omillar patogen agentlar bilan birinchi bo'lib aloqa qiladi, shuning uchun ularning faoliyati hisobiga odam organizmining ko'pgina yuqumli kasallik qo'zg'atuvchilariga chidamliligi ta'minlanadi.

2. Tug'ma I. (turga xos, tabiiy) — bu ota onadan bolaga o'tadigan immunitetdir. Masalan, it, qoramol, tovuqlarning o'lat kasalligi qo'zg'atuvchilari odamlarga yuqmaydi, o'z navbatida odamlardagi zaxm, qizamiq, virusli gepatit, OITS qo'zg'atuvchilari hayvonlarda kasallik qo'zg'atmaydi. Turga xos I. uzoq yillar davomida evolyusiya natijasida makroorganizm bilan patogen mikroorganizmlarning o'zaro munosabati oqibatida vujudga kelgan.

3. Orttirilgan I. — hayot davomida organizm immun sistemasining yot antigenlar bilan ta'sirlashuvi hisobiga yuzaga keladigan himoya omili bo'lib, nasldan naslga o'tmaydi. Orttirilgan I. tabiiy va sun'iy bo'ladi. Tabiiy I. o'z navbatida yana ikkiga bo'linadi: 1) tabiiy faol I. — yuqumli kasallikdan sog'aygandan so'ng yuzaga keladi; 2) tabiiy sust I. — onadan bolaga yo'ldosh va sut orqali o'tadi. Sun'iy I. ham ikki xil bo'ladi: 1) sun'iy faol I. vaktsinalar bilan emlaganda hosil bo'ladi; 2) sun'iy sust I. — zardob, qon, immunoglobulin va plazmalar yuborilgandan sung yuzaga keladi. Orttirilgan I. mikrobg qarshi (antibakterial I.) va uning toksinlariga qarshi (antitoksik I.) vujudga keladi. Antibakterial I. o'z navbatida steril va nosteril turlarga bulinadi. Steril I. da kasallikdan so'ng patogen mikroorganizmda saqlanib qolmaydi (ko'pgina yuqumli kasalliklarga xos). Nosteril I. da kasallik qo'zg'atuvchisi organizmda saqlanib qolishi mumkin (maye., sil, ich terlama, shol, gepatit kabi kasalliklarda), lekin odamda kasallik belgilari ku-zatilmaydi, ammo I. ma'lum bir sabablarga ko'ra susaysa, kasallik qaytalanishi (retsdiv) mumkin.

Adaptiv I. bir organizm limfoid hujayralarini ikkinchi organizmga ko'chirib o'tkazilganda, ularning faolligi hisobiga yuzaga keladi. Mas., oq qon kasalligida o'zgargan qon hujayralari o'ldirilib, donor sog'lom odamdan ko'mik ko'chirib o'tkaziladi. To'qima va a'zolari donordan retsiyentga ko'chirib o'tkazishda rivojlanadigan qimoya transplantatsion I. deb ataladi. Bu himoya ko'chirib o'tkazilgan to'qima va a'zolarining bitib ketmasligiga va ularning nekrozga uchrashiga sabab bo'ladi.

Muayyan to'qima va a'zoda ma'lum bir omilga qarshi rivojlangan himoya mahalliy I. deb ataladi. Bu himoya sirtqi immun sistema a'zolarining faolligi hisobiga yuzaga keladi.

Xulosa qilib aytamanki, insonda immunitet qanchalik mustahkam bo'lsa, organizmning kasalliklarga chidamliligi shuncha yuqori bo'ladi. Immunitetni oshirish uchun tabiiy vositalardan foydalanish kerak. Immunitetni mustahkamlash avvalo muvozanatli ovqatlanishdan boshlanadi. Buning uchun ovqat ratsionimizni 4 xil mahsulot tashkil qilishi kerak. Bular sut va sut mahsulotlari, go'sht mahsulotlari, sabzavot-meva guruhi va don mahsulotlari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muhamedov E.M., Eshboev E.X. Mikrobiologiya, immunologiya, virusologiya. T.,
2. Bakulina N.A., Kraeva E.L. Mikrobiologiya. T., "Meditsina" nashriyoti. 1979.
3. Vorobyov A.A., Bo'kov A.S. «Mikrobiologiya». M., izd-vo «Vo'sshaya shkola». 2003.